

The page is decorated with various black and white line drawings of grapevines. These include clusters of grapes, individual grapes, and several large, detailed leaves with prominent veins. The illustrations are scattered across the left and bottom portions of the page, framing the central text area.

# *Uzum*

NAVLARINING  
TAVSIFI

KBK 42.36ya6  
UO'K 634.8(084.12)  
U 29

Uzum navlarining tavsifi [Matn]: kitob-albom – Toshkent: Tasvir, 2023.- 160 bet.

ISBN 978-9943-7867-5-2

KBK 42.36ya6  
UO'K 634.8(084.12)

**Loyiha g'oyasi muallifi va tashkilotchi:** «Agrobank» ATB.

**Tuzuvchi:** Z. A. Abdikayumov – Toshkent davlat agrar universiteti «Mevachilik va uzumchilik» kafedrası dotsenti, q.x.f.f.d.

**Taqrizchilar:** J. N. Fayziyev – Akademik M. Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti professori, q.x.f.d.

N. Ch. Narkabulova – Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, texnika fanlari falsafa doktori.

**Muharrir:** Sh. Beknazarova

Ushbu qo'llanma **«Agrobank» ATB** muassisligida tayyorlandi hamda nashr ettirildi. Bildirilgan fikr-mulohaza, xulosa va tavsiyalarga tuzuvchi mualliflar mas'uldir.

Ijtimoiy loyihalar bilan agrar sohaga sarmoya kiritish doirasida «Agrobank» ATB tomonidan 100 ta kitobdan iborat qo'llanmalar to'plami hamda o'simliklarni himoya qilish yo'nalishida 40 kitobdan iborat qo'llanmalar to'plamini tayyorladi. To'plamlarda qishloq xo'jaligi sohasi, jumladan, meva-sabzavot va poliz ekinlari, g'allachilik, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik va o'simliklarni himoya qilish kabi tarmoqlarning eng ilg'or tajribalariga oid rivojlangan davlatlar va yurtimizda erishilgan keng qamrovli ilmiy va amaliy ma'lumotlar qamrab olingan. Bu kabi loyihalarni davom ettirish maqsadida «Agrobank» ATB sizga mamlakatimizda keng tarqalgan uzum navlari xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi «Uzum navlari tavsifi» katalogini taqdim etadi. Katalog mazkur yo'nalishdagi birinchi nashr bo'lib, kelgusida ushbu loyihani davom ettirish maqsadida bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflar asosida yana-da boyitib borish ko'zda tutilgan. Qo'llanma soha mutaxassislari, fermerlar va keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan. Ushbu qo'llanma «Agrobank» ATB tuhfasi.

ISBN 978-9943-7867-5-2

© «Tasvir» nashriyot uyi, 2023-yil



## XO'RAKI NAVLAR

- 01 ANDIJON QORASI
- 02 DILI KAPTAR
- 03 ECHKIEMAR
- 04 GO'ZAL QORA
- 05 JODUGAR BARMOQ
- 06 KARDINAL
- 07 KATTA QO'RG'ON
- 08 KELIN BARMOQ XUSAYNI
- 09 MUSKAT XUSAYNI
- 10 NIMRANG
- 11 OQ TOYFI
- 12 OQ XUSAYNI
- 13 PARKENT
- 14 POBEDA
- 15 PUSHTI KELIN BARMOQ

- 16 PUSHTI TOYFI
- 17 QORA JANJAL
- 18 QORA XUSAYNI
- 19 QORA CHILLAKI, CHILGI
- 20 QIZIL XURMONI
- 21 QIZIL XUSAYNI
- 22 RED GLOB
- 23 RIZAMAT
- 24 SULTONI
- 25 SURXAK
- 26 XUSAYNI KADU, XASAYNI
- 27 O'ZBEKISTON MUSKATI
- 28 SHOHONA
- 29 SHIRIN YOQUT
- 30 SHTUR ANGUR



## KISHMISH NAVLAR

- 31 HINDISTON KISHMISHI
- 32 KISHMISH BOTIR
- 33 KISHMISH IRTISHAR
- 34 KISHMISH XISHRAU
- 35 MARMAR KISHMISH
- 36 MOTRUDIY
- 37 OQ KISHMISH
- 38 PARLET
- 39 PUSHTI KISHMISH
- 40 QORA KISHMISH
- 41 SAMARQAND KISHMISHI
- 42 SUG'DIYONA KISHMISHI



## TEXNIK NAVLAR

- 43 ALEATIKO
- 44 BAYAN SHIREY
- 45 KABERNE
- 46 KULDJINSKIY

- 47 LIKERNIY
- 48 MAGARACHSKIY
- 49 MAYSKIY
- 50 MERLO
- 51 MORASTEL
- 52 MUSKAT ALEKSANDRIYSKIY
- 53 MUSKAT VENGERSKIY
- 54 PINO GRI
- 55 PINO NUAR
- 56 PUSHTI MUSKAT
- 57 RISLING
- 58 RKATSITELI
- 59 SAPERAVI
- 60 SOVINYON BLAN
- 61 TARNAU
- 62 TAVKVERI
- 63 XINDOGNI
- 64 SHARDONE

***Uzumchilik bu – xalqimizning asrlar davomidagi milliy  
dehqonchilik madaniyati, qadriyati, g'ururi va daromad manbai...***

***Sh.Mirziyoyev***

Uzumchilik juda qadimdan mamlakatimizda eng sevimli meva sifatida yetishtirib kelingan. Uzumchilik xalqimizning turmush tarzi, urf-odati va qadriyatlari bilan uzviy bog'lanib ketgan. Uzum nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoning aksariyat davlatlarida o'zining jozibali uzum boshlari va g'ujumlari, ajoyib ta'm sifatleri, boy biokimyoviy tarkibi bilan alohida qadrlanadi.

Asrlar davomida yetishtirib kelinar ekan, xalqimiz tomonidan uzumning «Rizamat», «Xusayni», «Xusayni kelin barmoq» kabi dunyoga mashhur navlari yaratilgan. Respublikamiz bo'ylab mahalliy uzum navlarining boy kolleksiyasi to'plangan. Har bir viloyatda aholi xonadonlarida ko'p yillar davomida yetishtirib kelinayotgan qimmatli mahalliy navlarni uchratish mumkin.

Uzum sevimli meva bo'lishi bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligining serdaromad sohasi hisoblanadi. Xalqimiz uzum yetishtirish bo'yicha yetarlicha tajribaga ega. Shu bois uzumchilikni rivojlantirish orqali fermer va dehqon xo'jaliklarining daromadini, farovonligini, qolaversa respublikamizning eksport salohiyatini yanada oshirish mumkin. Buning uchun xilma-xil uzum navlari tarkibidan har bir viloyat iqlimi va agrotexnika xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng maqbul navlarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa yangi tokzorlar barpo etilayotganda eng istiqbolli bo'lgan navlar majmuini tanlash shu tokzorning mahsuldorligi, uzoq muddatlilik va iqtisodiy samaradorligini belgilovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Ushbu to'plamda uzumning so'nggi yillarda o'zining yuqori hosildorligi, jozibali uzum boshlari va takrorlanmas ta'm sifatleri hamda eksportbopligi bilan yuqori baholanayotgan eng mashhur va istiqbolli navlarining tavsifi keltirilgan.

To'plamga kiritilgan uzum navlari uch bo'limga ajratilgan bo'lib, birinchi bo'lim xo'raki, ikkinchi bo'lim kishmishbop va uchinchi bo'lim texnik (sanoatda qayta ishlanuvchi) navlarni o'z ichiga olgan. Bu esa har bir mirishkor bog'bonga o'zi maqsad qilgan yo'nalishdagi tokzor barpo qilishida eng samarali navni tanlab olish imkonini beradi.



# Xo'raki navlar

---





# Andijon qorasi

# 01



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Андижанский черный



**Nav guruhi:**  
xo'raki va mayizbop



**Pishish muddati:**  
avgust oyining o'rtalari



**Uzum boshi:**  
o'rtacha kattalikda, silindr-konussimon, o'rtacha zich,  
uzunligi 18 sm, eni 13 sm, o'rtacha og'irligi 200–220 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 25 mm, eni 17 mm, rangi qora.

**Po'sti:** yupqa, mustahkam, ko'kimtir mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** zich, sersuv, yengil karsildoq.

**Ta'mi:** yoqimli shirin.

**Qanddorligi:** to'liq pishganda 27–28%, kislotaliligi – 4,5–5,5 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (90%).

**Hosildorligi:** 17–18 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,1–1,65.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 7–8 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, soyabonchali simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari.





# Dili kaptar

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Дили каптар

**Nav guruhi:**

xo'raki va mayizbop

**Pishish muddati:**

avgust oyining ikkinchi yarmi – sentabr oyining boshi

**Uzum boshi:**

yirik, konussimon, uzunligi 20–22 sm, eni 10–12 sm,  
o'rtacha og'irligi 300–325 g

**G'ujumi:** yirik, sharsimon, rangi pushti.

**Po'sti:** yupqa, ammo yetarlicha mustahkam, mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** sersuv, go'shtdor.

**Ta'mi:** yoqimli, juda shirin.

**Qanddorligi:** 23–24%, kislotaliligi – 5,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (85%).

**Hosildorligi:** 14–32 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,02.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 5–10 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan, Farg'ona va Toshkent viloyatlari.

# 02





# Echkiemar



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Ичкимар



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining oxiri – sentabr oyining boshlari



**Uzum boshi:**  
yirik, konussimon, o'rtacha zich, uzunligi 26–30 sm, eni 18–23 sm,  
o'rtacha og'irligi 450 g, ba'zan 800–1000 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 28 mm, eni 23 mm, to'q pushti, «Rizamat» naviga juda ham o'xshab ketadi.

**Po'sti:** yupqa, yengil chaynaladi, kulrang mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** go'shtdor, sersuv, karsildoq («Rizamat» naviga nisbatan yumshoqroq).

**Ta'mi:** juda yoqimli, uyg'un, meva toni mavjud.

**Qanddorligi:** to'liq pishganda 20–22%, kislotaliligi – 4,0–4,5 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.

**Hosildorligi:** o'rtacha 10–12 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,4.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–16 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, soyabonchali simbag'az.

**\* Changlovchi nav talab etadi:** changlovchi navlar «Oq kishmish», «Qora kishmish», «Parkent», «Xusayni».

**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari.

03





# Go'zal qora



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Гузаль кара



**Nav guruhi:**  
xo'raki va mayizbop



**Pishish muddati:**  
avgust oyining oxiri



**Uzum boshi:**  
yirik, konussimon, ba'zan silindr-konussimon, bo'sh, uzunligi 25 sm,  
eni 17 sm atrofida, o'rtacha og'irligi 650 g

**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 25–28 mm, eni 21–24 mm, dumaloq yoki dumaloq-ovalsimon shaklda, rangi qora.  
**Po'sti:** yupqa, mustahkam emas, mum g'ubor bilan quyuq qoplangan.  
**Eti:** etdor-sersuv, marmeladsimon, iste'mol qilinganda eruvchan.  
**Ta'mi:** juda ham yoqimli shirin.  
**Qanddorligi:** to'liq pishganda 20–22%, kislotaliligi – 4,0–4,5 g/l.  
**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.  
**Hosildorligi:** o'rtacha 22–24 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,42.  
**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–15 ta ko'z.  
**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish yoki soyabonchali simbag'az.  
**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.

04





# Jodugar barmoq



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Witch Fingers (Kaliforniya, AQSH)



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining o'rtalari



**Uzum boshi:**  
yirik, silindr-konussimon, noaniq, zich, uzunligi 26–35 sm, eni 20–29 sm,  
o'rtacha og'irligi 650–700 g, ba'zan 800–1500 g

**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 45–47 mm, eni 12–15 mm, uzunchoq konussimon, biroz egilgan, qoramtir to'q binafsharang.  
**Po'sti:** o'rtacha qalin, mustahkam, kulrang mum g'ubor bilan quyuc qoplangan.  
**Eti:** zich, karsildoq, sersuv.  
**Ta'mi:** shirin, uyg'un, olxo'rini eslatadi, dyushes hidli.  
**Qanddorligi:** to'liq pishganda 18–20%, kislotaliligi – 6,0–8,5 g/l.  
**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.  
**Hosildorligi:** o'rtacha 15–18 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,2.  
**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 11–14 ta ko'z.  
**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, soyabonchali simbag'az.  
**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlari.

05





# Kardinal

# 06



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Cardinal (Kaliforniya, AQSH)



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining o'rtalari



**Uzum boshi:**  
juda yirik, konussimon, noaniq, zich, uzunligi 20–28 sm, eni 13–19 sm,  
o'rtacha og'irligi 350–500 g, alohida uzumboshlari 900 g gacha boradi

**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 20–30 mm, eni 19–22 mm, o'rtacha og'irligi 7–9 g, rangi binafsharang-qizil, ovalsimon shaklda.

**Po'sti:** yetarlicha mustahkam, mum g'ubor bilan quyuq qoplangan.

**Eti:** sersuv va go'shtdor.

**Ta'mi:** yoqimli shirin, kuchsiz muskat ta'mli.

**Qanddorligi:** 17–18%, kislotaliligi – 6,0–8,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** o'rtacha, novdalari to'liq pishadi.

**Hosildorligi:** o'rtacha 11–13 t/ga atrofida; hosil tuguvchanligi – 1,3.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 5–6 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, soyabonchali simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan, Farg'ona va Toshkent viloyatlari.





# Katta qo'rg'on



Agrobank



Agrobooks



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Каттакурган



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining ikkinchi yarmi



**Uzum boshi:**  
yirik, uzunchoq silindrsimon yoki uzunchoq ovalsimon,  
uzunligi 18 dan 50 sm gacha, eni 10–15 sm, o'rtacha og'irligi 300–350 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 25 dan 38 mm gacha, eni 15–25 mm, rangi sarg'ish yashil.  
**Po'sti:** yupqa, ammo yetarlicha mustahkam, kuchsiz mum g'ubor bilan qoplangan.  
**Eti:** sersuv, go'shtdor, mayin, yengil karsildoq.  
**Ta'mi:** yoqimli shirin, uyg'un, tetiklantiruvchi kuchsiz nordonligi mavjud.  
**Qanddorligi:** terim davrida 17–19%, kislotaliligi – 4–5,3 g/l.  
**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (85%).  
**Hosildorligi:** 16–17 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,0–1,2.  
**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–16 ta ko'z.  
**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.  
**Tavsiya etilgan hudud:** Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy va Surxondaryo viloyatlari.





# Kelin barmoq Xusayni

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Хусайне келин бармак

**Nav guruhi:**

xo'raki

**Pishish muddati:**

avgust oyining o'rtalari

**Uzum boshi:**

o'rtacha, silindr-konussimon, juda bo'sh,  
uzunligi 25–27 sm., eni 10–12 sm,  
o'rtacha og'irligi 300–350 g, ba'zan 1 kg gacha yetadi

**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 44–46 mm, eni 11–13 mm, rangi sarg'ish yashil.

**Po'sti:** yupqa, shaffof, kuchsiz mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** mayin, sersuv, eruvchan.

**Ta'mi:** yoqimli, mayin shirin.

**Qanddorligi:** terim davrida 17–18%, kislotaliligi – 3,9–4,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** o'rtacha, novdalarining pishuvchanligi yaxshi.

**Hosildorligi:** 15–16 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,0.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–16 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.





# Muskat Xusayni



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Muskat Xusayni



**Nav guruhi:**  
xo'raki va mayizbob



**Pishish muddati:**  
sentabr oyining boshi



**Uzum boshi:**  
yirik, silindr-konussimon, o'rtacha bo'sh, qanotli,  
uzunligi 20–23 sm, eni 13–15 sm,  
o'rtacha og'irligi 400–450 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 38–41 mm, eni 24–28 mm, silindrsimon-ovalsimon, rangi sarg'ish yashil.

**Po'sti:** o'rtacha qalin, shaffof, mum g'ubor bilan o'rtacha qoplangan.

**Eti:** zich, sersuv, karsildoq.

**Ta'mi:** yoqimli muskat ta'mli, mayin shirin.

**Qanddorligi:** terim davrida 23–24%, kislotaliligi – 3,3–3,5 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi.

**Hosildorligi:** 14–15 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,0.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–15 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.





# Nimrang (Krimskiy)

# 10



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Nimrang



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining ikkinchi yarmi



**Uzum boshi:**  
yirik, uzunchoq silindrsimon yoki uzunchoq ovalsimon,  
uzunligi 18 dan 50 sm gacha, eni 10–15 sm, o'rtacha og'irligi 300–350 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 22–25 mm, eni 18–23 mm, teskari tuxumsimon shaklda, sarg'ish-oq, quyoshga qaragan tarafi pushti, to'liq pishganda butunlay pushti.

**Po'sti:** zich va mustahkam, mum g'ubor bilan o'rtacha qoplangan.

**Eti:** go'shtdor, sersuv, karsildoq.

**Ta'mi:** uyg'un, yoqimli shirin, yengil taxir tonli.

**Qanddorligi:** to'liq pishganda 23–25%, kislotaliligi – 5,0–6,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.

**Hosildorligi:** o'rtacha 9–20 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,2–1,3.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–15 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, tik simbag'az.

\* **Changlovchi nav talab etadi:** changlovchi navlar «Pushti Toyfi», «Qora kishmish», «Parkent», «Oktabr».

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.



# Oq Toyfi

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Тайфи белый

**Nav guruhi:**

xo'raki

**Pishish muddati:**

sentabr oyining ikkinchi yarmi

**Uzum boshi:**

yirik, konussimon, silindrsimon yoki noaniq,  
uzunligi 22–24 sm, eni 8–22 sm, o'rtacha og'irligi 450 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 22–24 mm, eni 18–22 mm, oval yoki bochkasimon shaklda, rangi oqish yashil, quyoshga qaragan tarafi biroz pushti.

**Po'sti:** o'rtacha qalin, mustahkam, mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** go'shtdor-sersuv, karsildoq.

**Ta'mi:** uyg'un, yoqimli, yengil taxir tonli.

**Qanddorligi:** 18–20%, kislotaliligi – 3,6–5,5 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi (95%).

**Hosildorligi:** 13–16 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,1.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–15 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish yoki soyabonchali simbag'az, qiya simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.

# 11





# Oq Xusayni

# 12

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Хусайне белый

**Nav guruhi:**

xo'raki

**Pishish muddati:**

avgust oyining ikkinchi yarmi

**Uzum boshi:**

yirik, uzunchoq silindrsimon yoki uzunchoq ovalsimon, uzunligi 18 dan 50 sm gacha, eni 10–15 sm, o'rtacha og'irligi 300–350 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 25 dan 38 mm gacha, eni 15–25 mm, rangi sarg'ish yashil.

**Po'sti:** yupqa, ammo yetarlicha mustahkam, kuchsiz mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** sersuv, go'shtdor, mayin, yengil karsildoq.

**Ta'mi:** yoqimli shirin, uyg'un, tetiklantiruvchi kuchsiz nordonligi mavjud.

**Qanddorligi:** terim davrida 17–19%, kislotaliligi – 4–5,3 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (85%)

**Hosildorligi:** 16–17 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,0–1,2.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–16 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.





# Parkent



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Parkent



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
sentabr oyining boshi



**Uzum boshi:** yirik, konussimon, keng qanotli, o'rtacha zich,  
uzunligi 18–25 sm, eni 10–12 sm, o'rtacha og'irligi 300 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 19–25 mm, eni 18–24 mm, dumaloq-oval, to'q qizil yoki to'q binafsharang.

**Po'sti:** qalin, o'rtacha mustahkam, kulrang mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** go'shtdor-sersuv.

**Ta'mi:** oddiy shirin, hidsiz, uyg'un.

**Qanddorligi:** to'liq pishganda 21–23%, kislotaliligi – 5,0–6,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.

**Hosildorligi:** o'rtacha 25–28 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,2.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–15 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** soyabonchali yoki tik simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Toshkent viloyati.





# Pobeda

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Победа (Xalqimiz orasida «Mers» nomi bilan mashhur)

**Nav guruhi:**

xo'raki

**Pishish muddati:**

avgust oyining oxiri – sentabr oyining boshlari

**Uzum boshi:**

yirik, silindr-konussimon, o'rtacha zich,  
uzunligi 25 sm, eni 16 sm, o'rtacha og'irligi 700 g

# 14



**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 35–37 mm, eni 24–26 mm, qora.

**Po'sti:** o'rtacha qalin, mustahkam, ko'kimtir mum g'ubor bilan quyuq qoplangan.

**Eti:** go'shtdor-sersuv.

**Ta'mi:** yoqimli, uyg'un, shirin, yoqimli nordonligi mavjud.

**Qanddorligi:** to'liq pishganda 22–26%, kislotaliligi – 6,0–8,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.

**Hosildorligi:** o'rtacha 28–30 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,11.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–16 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, 4 yarusli tik yoki soyabonchali simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.



# Pushti kelin barmog

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Ro'yxatga olinmagan, istiqbolli nav

**Nav guruhi:**

xo'raki

**Pishish muddati:**

avgust oyining ikkinchi yarmi

**Uzum boshi:**

yirik, konussimon, uzunligi 25–27 sm, eni 12–13 sm,  
o'rtacha og'irligi 300–350 g

**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 44–46 mm, eni 11–13 mm, rangi sarg'ish yashil, uchki tomoni o'ziga xos pushti.

**Po'sti:** yupqa, mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** zich, karsildoq.

**Ta'mi:** uyg'un, yoqimli shirin.

**Qanddorligi:** terim davrida 19–20%, kislotaliligi – 3,9–4,2 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** o'rtacha, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (85%).

**Hosildorligi:** 15–16 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,0.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–15 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.





# Pushti Toyfi

# 16

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Тайфи розовый

**Nav guruhi:**

xo'raki

**Pishish muddati:**

sentabr oyining oxiri

**Uzum boshi:**

yirik, konussimon yoki noaniq, uzunligi 19–31 sm, eni 20–23 sm, o'rtacha og'irligi 650–700 g, ba'zan 2–3 kg ga yetadi



**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 21–28 mm, eni 14–24 mm, uzunchoq oval yoki uzunchoq silindrsimon shaklda, rangi bir tekis bo'lmagan pushti, quyoshga qaragan tarafi to'qroq tusda.

**Po'sti:** o'rtacha qalin, mustahkam, mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** go'shtdor, karsildoq, yetarlicha sersuv.

**Ta'mi:** uyg'un, yoqimli, yengil taxir tonli.

**Qanddorligi:** terim davrida 17–19%, kislotaliligi – 4,3–5,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.

**Hosildorligi:** 17–29 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,1.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–15 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish yoki soyabonchali simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.



# Qora janjal

# 17

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Кара джанджал

**Nav guruhi:**

xo'raki va mayizbop

**Pishish muddati:**

avgust oyining oxiri

**Uzum boshi:**

yirik, silindrsimon, o'rtacha zich, uzunligi 20–22 sm, eni 12–13 sm  
atrofida, o'rtacha og'irligi 230–250 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 21–22 mm, eni 17–19 mm, ovalsimon shaklda, rangi qora.

**Po'sti:** yupqa, mustahkam, mum g'ubor bilan o'rtacha qoplangan.

**Eti:** sersuv, zich, karsildoq.

**Ta'mi:** juda ham yoqimli shirin.

**Qanddorligi:** to'liq pishganda 25–27%, kislotaliligi – 3,5–4,5 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.

**Hosildorligi:** o'rtacha 22–25 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,1–1,4.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–14 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish yoki soyabonchali simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent va Xorazm viloyatlari.





# Qora Xusayni



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Хусайне черный



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining oxirlari



**Uzum boshi:**  
o'rtacha, silindr-konussimon, o'rtacha bo'sh, qanotli,  
uzunligi 20–22 sm, eni 12–14 sm,  
o'rtacha og'irligi 350–400 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 36–39 mm, eni 22–24 mm, silindrsimon-ovalsimon, rangi to'q binafsharang.

**Po'sti:** o'rtacha qalin, mustahkam, quyuq kulrang mum g'uborli.

**Eti:** sersuv, yengil karsildoq.

**Ta'mi:** yoqimli, mayin shirin, yoqimli nordon ta'mi mavjud.

**Qanddorligi:** terim davrida 19–21%, kislotaliligi – 4,3–5,5 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** o'rtacha, novdalarining pishuvchanligi yaxshi.

**Hosildorligi:** 7–9 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,0.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–16 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.





# Qora chillaki, chilgi



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Эртапишар



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
iyul oyining o'rtalari



**Uzum boshi:**  
o'rtacha kattalikda, silindr-konussimon shaklda,  
uzunligi 18 sm, eni 13 sm, o'rtacha og'irligi 160–200 g

**G'ujumi:** o'rtacha kattalikda, uzunligi 12 mm, eni 11 mm, dumaloq-ovalsimon shaklda, rangi to'q binafsharang.

**Po'sti:** yupqa, mustahkam, kulrang mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** sersuv, zich, karsildoq.

**Ta'mi:** yoqimli shirin, tetiklantiruvchi nordonligi mavjud.

**Qanddorligi:** 17–18%, kislotaliligi – 4,5–5,3 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** o'rtacha, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (95%).

**Hosildorligi:** 12–16 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,1–1,3.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–14 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan, Farg'ona, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari.





# Qizil xurmoni



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Кизил хурманы



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
sentabr oyining birinchi yarmi



**Uzum boshi:**  
yirik, silindrsimon yoki konussimon, zich yoki juda zich,  
uzunligi 27 sm, eni 17 sm, o'rtacha og'irligi 450–640 g

**G'ujumi:** yirik, uchki tomoni biroz ingichkalashgan, rangi qizil.  
**Po'sti:** o'rtacha qalin, mustahkam, mum g'ubor bilan o'rtacha qoplangan.  
**Eti:** go'shtdor-sersuv, mayin.  
**Ta'mi:** oddiy shirin.  
**Qanddorligi:** to'liq pishganda 20–22%, kislotaliligi – 3,0–6,0 g/l.  
**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.  
**Hosildorligi:** o'rtacha 10 t/ga atrofida; hosil tuguvchanligi – 1,02.  
**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–16 ta ko'z.  
**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, soyabonchali simbag'az.  
**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati.

# 20





# Qizil Xusayni

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Хусайне красный

**Nav guruhi:**

xo'raki

**Pishish muddati:**

avgust oyining oxirlari

**Uzum boshi:**

yirik, uzunchoq silindrsimon yoki uzunchoq ovalsimon,  
uzunligi 18 dan 50 sm. gacha, eni 10–15 sm,  
o'rtacha og'irligi 300–350 g, bandi mo'rt



**G'ujumi:** yirik, uzunligi 36–41 mm, eni 25–28 mm, silindrsimon-ovalsimon, rangi pushti, pishgan sari pushti ton ortib boradi.

**Po'sti:** o'rtacha qalin, mustahkam, quyuq mum g'uborli.

**Eti:** go'shtdor-sersuv, yengil karsildoq.

**Ta'mi:** yoqimli, o'ziga xos uyg'un, mayin shirin.

**Qanddorligi:** terim davrida 22–23%, kislotaliligi – 4,3–5,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** o'rtacha, novdalarining pishuvchanligi yaxshi.

**Hosildorligi:** 7–8 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,0.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–16 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlari.



# Red glob



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Red Globe (Kaliforniya, AQSH)



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
sentabr oyining birinchi yarmi



**Uzum boshi:**  
juda yirik, konussimon, o'rtacha zich, o'rtacha og'irligi 700–800 g,  
alohida uzum boshlari 1,5–2,5 kg gacha boradi

**G'ujumi:** juda yirik (diametri 25–40 mm), o'rtacha og'irligi 12–15 g, yaxshi agrotexnikada 20 g gacha boradi, rangi pushti, qizg'ish-binafsharang.

**Po'sti:** yupqa, mustahkam, yorilib ketmaydi.

**Eti:** go'shtdor, juda zich.

**Ta'mi:** yoqimli uyg'un.

**Qanddorligi:** 15% atrofida, kislotaliligi – 4,5–7,5 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** o'rtacha, novdalari to'liq pishadi.

**Hosildorligi:** o'rtacha 12–15 t/ga atrofida; hosil tuguvchanligi – 1,4.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 8–9 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, soyabonchali simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlari.





# Rizamat



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Rizamat



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining ikkinchi yarmi



**Uzum boshi:**  
yirik, konussimon, uzunligi 17–18 sm, eni 12–13 sm,  
o'rtacha og'irligi 300–350 g

**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 27–28 mm, eni 18–19 mm, rangi pushti, bir tomoni yana-da to'qroq pushti.

**Po'sti:** yupqa, mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** zich, karsildoq.

**Ta'mi:** shirin va yengil nordonlikning ajoyib uyg'unligi.

**Qanddorligi:** terim davrida 19–20%, kislotaliligi – 4,5–5,1 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** o'rtacha, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (85%).

**Hosildorligi:** 15–18 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,1–1,2.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 10 ta ko'zdan kam emas.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish yoki soyabonchali simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.

# 23





# Sultoni



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Султани



**Nav guruhi:**  
xo'raki va mayizbob



**Pishish muddati:**  
sentabr oyining boshi



**Uzum boshi:**  
o'rtacha va yirik, silindr-konussimon, qanotli, zich,  
uzunligi 16–29 sm, eni 10–19 sm,  
o'rtacha og'irligi 450–500 g, ba'zan 800–1100 g

**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 25–27 mm, eni 19–25 mm, dumaloq yoki biroz oval, sarg'ish-yashil, to'liq pishganda qahrabo rang.  
**Po'sti:** o'rtacha qalin, shaffof, nuqtali, mum g'ubor bilan kam qoplangan.  
**Eti:** zich, karsildoq, sersuv.  
**Ta'mi:** shirin, uyg'un.  
**Qanddorligi:** to'liq pishganda 22–25%, kislotaliligi – 5,0–5,5 g/l.  
**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.  
**Hosildorligi:** o'rtacha 25–32 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,07.  
**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 11–12 ta ko'z.  
**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** soyabonchali yoki tik simbag'az.  
**Tavsiya etilgan hudud:** Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari.





# Surxak



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Сурхак kitabский



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
18–24 iyul



**Uzum boshi:**  
yirik, uzunligi 17–20 sm, eni 14–16 sm,  
konussimon va qanotli, zich, o'rtacha og'irligi 415 g

# 25



**G'ujumi:** yirik, uzunligi 22–25 mm, eni 16–18 mm, ovalsimon shaklda, rangi to'q pushti.

**Po'sti:** o'rtacha qalinlikda, mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** go'shtdor-sersuv, karsildoq.

**Ta'mi:** yoqimli shirin.

**Qanddorligi:** 21–24%, kislotaliligi – 4,0–5,5 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (90–96%).

**Hosildorligi:** 16–25 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,2.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–14 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** tik yoki soyabonchali simbag'azlarda yelpig'ichsimon.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.



# Xusayni kadu, Xasayni

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Хусайне каду (Xalqimiz orasida «Ketmon sop» nomi bilan mashhur)

**Nav guruhi:**

xo'raki

**Pishish muddati:**

sentabr oyining boshi

**Uzum boshi:**

yirik, silindrsimon yoki silindr-konussimon, bo'sh, ko'pincha shoxlangan, uzunligi 20–22 sm, eni 13–14 sm, o'rtacha og'irligi 380 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 42–44 mm, eni 14–16 mm, silindrsimon, rangi sarg'ish yashil.

**Po'sti:** o'rtacha qalin, shaffof, mum g'ubor bilan kuchli qoplangan.

**Eti:** zich, sersuv, karsildoq.

**Ta'mi:** yoqimli mayin shirin.

**Qanddorligi:** terim davrida 22–25%, kislotaliligi – 3,5–4,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi.

**Hosildorligi:** 9–11 t/ga; hosil tuguvchanligi – past, 0,25.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 12–13 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar.





# O'zbekiston muskati



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Мускат узбекистанский



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
sentabr oyining ikkinchi yarmi



**Uzum boshi:**  
juda yirik, uzunligi 27 sm, eni 14 sm, shoxlangan,  
o'rtacha zich, o'rtacha og'irligi 550–620 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 25 mm, eni 23 mm, teskari tuxumsimon shaklda, rangi sarg'ish-yashil.

**Po'sti:** yupqa, mustahkam, mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** sersuv-go'shtdor, karsildoq.

**Sharbatining ta'mi:** uyg'un, muskat ta'mli.

**Sharbatining qanddorligi:** 23–25%, kislotaliligi – 4,0–5,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (80%).

**Hosildorligi:** 40–50 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,2–1,3.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 10–12 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, soyabonchali simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlari.





# Shohona



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Шоҳона (Tojikiston navi)



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining ikkinchi yarmi



**Uzum boshi:**  
juda yirik, konussimon, uzunligi 23–25 sm, eni 12–13 sm,  
o'rtacha og'irligi 300–350 g, ba'zan 2–4 kg gacha

**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 24–25 mm, eni 16–18 mm, qoramtir pushti.  
**Po'sti:** yupqa, mum g'ubor bilan qoplangan.  
**Eti:** zich, karsildoq.  
**Ta'mi:** uyg'un, yoqimli shirin.  
**Qanddorligi:** terim davrida 19–21%, kislotaliligi – 4,5–5,0 g/l.  
**Tupining o'sish kuchi:** o'rtacha, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (85%).  
**Hosildorligi:** 27–38 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,1.  
**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 10 ta ko'zdan kam emas.  
**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.  
**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari.

# 28





# Shirin yoqut

**Ro'yxatga olingan nomi:**

Sweet Sapphire (IFG, Kaliforniya, AQSH)  
(Xalqimiz orasida «Avatar» nomi bilan mashhur)

**Nav guruhi:**

xo'raki

**Pishish muddati:**

avgust oyining oxirlari

**Uzum boshi:**

juda yirik, konussimon, o'rtacha zich, uzunligi 29–31 sm, eni 16–29 sm,  
o'rtacha og'irligi 500–800 g, ko'pincha 1080 g

# 29



**G'ujumi:** juda yirik, uzunligi 41–50 mm, eni 18–20 mm, silindrsimon, biroz egilgan, uchida o'ziga xos ajralib turuvchi chuqurchasi bor, rangi qora.

**Po'sti:** yupqa, mustahkam, ko'kimtir mum g'ubor bilan kuchli qoplangan.

**Eti:** zich, sersuv, karsildoq.

**Ta'mi:** yoqimli shirin, mayin, tetiklantiruvchi uyg'un.

**Qanddorligi:** 18,4%, kislotaliligi – 3,88 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (90%).

**Hosildorligi:** 13–14 t/ga.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 10–12 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish, soyabonchali simbag'az.

**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan, Farg'ona va Toshkent viloyatlari.



# Shtur angur



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Shtur angur



**Nav guruhi:**  
xo'raki



**Pishish muddati:**  
sentabr oyining o'rtalari



**Uzum boshi:**  
yirik, silindrsimon yoki silindr-konussimon,  
uzunligi 22–23 sm, eni 13–14 sm,  
o'rtacha og'irligi 500–543 g

**G'ujumi:** yirik, uzunligi 24–25 mm, eni 16–18 mm, silindrsimon, pushti-binafsharang, to'liq pishganda to'q qizil.

**Po'sti:** yupqa, mustahkam, mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** juda zich, karsildoq, sersuv.

**Ta'mi:** yoqimli shirin.

**Qanddorligi:** terim davrida 22–24%, kislotaliligi – 4,5–5,0 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (85%).

**Hosildorligi:** 13–20 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,06.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 10–12 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Samarqand va Surxondaryo viloyatlari.

# 30





















# Kishmish navlar





# Hindiston kishmishi



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Krishna Sharad (Hindiston)



**Nav guruhi:**  
kishmishbop va xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining oxiri



**Uzum boshi:**  
yirik, konussimon yoki noaniq, uzunligi 29–32 sm,  
eni 15–17 sm, o'rtacha og'irligi 350–400 g

**G'ujumi:** kishmish navlar uchun juda yirik, uzunligi 15–18 mm, eni 14–17 mm, oval shaklda, biroz uchli, rangi qoramtir binafsharang.

**Po'sti:** o'rtacha qalin, mustahkam, mum g'ubor bilan qoplangan.

**Eti:** go'shtdor, karsildoq, yetarlicha sersuv.

**Ta'mi:** yoqimli, o'ziga xos tonli, shirin.

**Qanddorligi:** terim davrida 22–24%, kislotaliligi – 4,3–5,5 g/l.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalari to'liq pishadi.

**Hosildorligi:** 17–19 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,1.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** 10–12 ta ko'z.

**Tavsiya etiladigan o'stirish usuli:** voish.

**Tavsiya etilgan hudud:** Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlari.





# Kishmish botir



**Ro'yxatga olingan nomi:**  
Kishmish botir



**Nav guruhi:**  
kishmishbop va xo'raki



**Pishish muddati:**  
avgust oyining o'rtalari



**Uzum boshi:**  
yirik, silindr-konussimon, noaniq, qanotli, o'rtacha zich,  
o'rtacha og'irligi 400–450 g

**G'ujumi:** yirik, o'rtacha og'irligi 4–5 g, rangi oq, sarg'ish tusi mavjud.

**Po'sti:** yupqa, mustahkam, mum g'ubor bilan kuchsiz qoplangan.

**Eti:** zich, karsildoq, sersuv.

**Ta'mi:** yoqimli shirin.

**Qanddorligi:** 21–22%, kislotaliligi – 4,0–5,5 g/l.

**Quritishda tayyor mahsulot chiqishi:** 24–25%.

**Tupining o'sish kuchi:** kuchli, novdalarining pishuvchanligi yaxshi (90%).

**Hosildorligi:** 16–17 t/ga; hosil tuguvchanligi – 1,0–1,2.

**Tavsiya etiladigan kesish uzunligi:** yer bag'irlab o'stirilganda 6–8 ta ko'z, tik simbag'azlarda 12–14 ta ko'z.

